



## SHAYBONIYLAR DAVRIDA TA'LIM, ILM-FAN, MADANIYAT VA SA'NAT

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20360012>

**Shorasulova SH.B.**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti  
Ilmiy rahbar: professor Z.A. Ilhomov*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida Movarounnahr hududida ta'lim tizimi, ilm-fan taraqqiyoti hamda madaniyat va san'at rivojining asosiy jihatlari tahlil qilinadi. Mazkur davrda madrasalar faoliyati, ilmiy muhitning shakllanishi, tarix, adabiyot, tilshunoslik va diniy ilmlar sohasida yaratilgan asarlar hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, Shayboniylar hukmdorlarining ilm-fan ahliga bo'lgan e'tibori, madaniy hayotning rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri va san'at sohalarining taraqqiy etish jarayoni tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi. Maqolada ushbu davrning ilmiy va madaniy merosi keyingi davrlar ma'naviy taraqqiyotiga muhim zamin yaratgani ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Shayboniylar davri, Movarounnahr, ta'lim tizimi, madrasa faoliyati, ilm-fan taraqqiyoti, madaniy hayot, san'at rivoji, adabiy muhit, tarixnavislik, ma'naviy meros, davlat homiyligi, madaniy taraqqiyot.*

## EDUCATION, SCIENCE, CULTURE AND ARTS DURING THE ERA OF THE SHAYBANIDS.

**Shorasulova SH.B**

*Faculty of History of the National Pedagogical  
University of Uzbekistan named after Nizami  
Scientific Supervisor: Professor Z.A. Ilhomov*

**Annotation (Abstract).** *This article analyzes the development of education, science, culture, and art in Movarounnahr during the rule of the Shaybanid dynasty. It examines the activities of madrasas, the formation of an intellectual environment, and the contribution of scholars in fields such as history, literature, linguistics, and religious studies. The study also highlights the patronage of the Shaybanid rulers toward scholars*



*and cultural figures, as well as their role in supporting scientific and artistic advancement. Furthermore, the article evaluates the cultural and intellectual legacy of this period and its significant influence on the subsequent development of spiritual and cultural life in the region.*

**Keywords:** *Shaybanid period, Movarounnahr, education system, madrasa institutions, development of science, cultural life, artistic development, literary environment, historiography, spiritual heritage, state patronage, cultural advancement.*

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “O‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi bo‘lmaydi”. Shu sababli milliy tariximizning muhim bosqichlarini ilmiy jihatdan o‘rganish, ayniqsa davlat taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan davrlarni tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston tarixida XVI asr boshlarida shakllangan Shayboniylar davlati ham siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy hayot rivojida muhim o‘rin egallaydi.

XVI asr boshlarida temuriylar hukmronligining zaiflashuvi natijasida Movarounnahr hududida yangi siyosiy kuch — Shayboniylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan. Ushbu sulola qisqa vaqt ichida Movarounnahr, Xuroson va Xorazm hududlarida o‘z hukmronligini o‘rnatib, mintaqaning siyosiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘zgarishlarni amalga oshirgan (O‘zbekiston tarixi, 2022, 28-bet).

Shayboniylar davrida nafaqat davlat boshqaruvi va iqtisodiy tizim rivojlangan, balki ilm-fan, madaniyat va san‘at sohalarida ham muayyan yuksalish kuzatilgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra,

ayrim Shayboniy hukmdorlari ilm-fan va ma’rifatga katta e’tibor qaratgan bo‘lib, ularning saroylarida kutubxonalar tashkil etilgan hamda olim va shoirlar faoliyati qo‘llab-quvvatlangan. Bu holat esa o‘z navbatida ilmiy va madaniy muhitning shakllanishiga muhim turtki bergan (O‘zbekiston tarixi, 2022, 197-bet).

Shuningdek, Shayboniylar davrida tarixnavislik, adabiyot, xattotlik va kitobat san’ati rivoj topgan. Buxoro, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda ilm-fan markazlari shakllanib, u yerda ko‘plab olimlar, shoirlar va san’atkorlar faoliyat yuritgan. Natijada ushbu davr Markaziy Osiyo tarixida madaniy taraqqiyotning muhim bosqichlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Shayboniylar davrida ta’lim tizimi, ilm-fan taraqqiyoti, madaniyat va san’at rivojini o‘rganish O‘zbekiston tarixini chuqur anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada aynan ushbu davrda Movarounnahr hududida ta’lim, ilm-fan, madaniyat va san’at rivojining asosiy jihatlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Shayboniylar davrida ta’lim, ilm-fan, madaniyat va san’at taraqqiyoti masalasi O‘zbekiston



tarixshunosligida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrni o‘rganishda tarixiy manbalar bilan bir qatorda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va o‘quv qo‘llanmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘zbek tarixchilari tomonidan yaratilgan ilmiy adabiyotlar Shayboniylar davrining siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy hayotini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi. Mazkur mavzuni o‘rganishda Z.A.Ilhomovning “O‘zbekiston xalqlari madaniyati tarixi (XVI–XIX asrning birinchi yarmi)” nomli o‘quv qo‘llanmasi muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Muallif mazkur asarda Shayboniylar sulolasining Movarounnahr hududida hokimiyat tepasiga kelishi, davlat boshqaruvi tizimi shakllanishi hamda mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlarni tarixiy manbalar asosida tahlil qiladi. Asarda, shuningdek, Shayboniylar davrida jamiyat hayotining turli sohalari, jumladan iqtisodiy, madaniy va ma‘rifiy jarayonlar haqida muhim ilmiy ma‘lumotlar keltirilgan. Muallif Shayboniylar davrida davlat boshqaruvi tizimi bilan bir qatorda ilm-fan va madaniyat rivojiga ham e‘tibor qaratilganini ta‘kidlaydi. Bu esa Movarounnahr hududida ilmiy va madaniy muhitning shakllanishiga muhim ta‘sir ko‘rsatgan [2.22–27]. Bundan tashqari, Shayboniylar davridagi madaniy hayot, adabiyot va tarixnavislik rivoji ham mazkur asarda alohida yoritilgan. Muallifning qayd etishicha, ushbu davrda tarixnavislik an‘analari davom etib,

ko‘plab tarixiy asarlar yaratilgan. Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, Mulla Shodi hamda Fayzulloh ibn Ruzibxon Isfahoniy kabi tarixchi va adiblar tomonidan yozilgan asarlar Shayboniylar davrining siyosiy hamda madaniy hayotini o‘rganishda muhim tarixiy manbalar hisoblanadi. Ushbu asarlar o‘z davrining ijtimoiy-madaniy hayotini, ilm-fan va adabiyot taraqqiyotini yorituvchi qimmatli tarixiy manba sifatida ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanib kelmoqda [2.196–198]. Shuningdek, Shayboniylar davrining madaniy va ma‘rifiy hayoti masalalari boshqa tarixiy tadqiqotlarda ham muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqotlarda Temuriylar davrida shakllangan ilmiy va madaniy an‘analar Shayboniylar davrida ham davom etgani, ayniqsa Buxoro, Samarqand va Hirot kabi shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida faoliyat ko‘rsatgani qayd etiladi. Bu davrda madrasalar faoliyati rivojlanib, diniy va dunyoviy fanlar o‘qitilishi davom etgan. Shu bilan birga, xattotlik, miniatyura san‘ati, adabiyot va tarixnavislik ham rivojlanib, Markaziy Osiyo madaniy hayotining muhim tarkibiy qismiga aylangan. [1.205–207]

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy adabiyotlar Shayboniylar davrida ta‘lim, ilm-fan, madaniyat va san‘at rivojlanishining asosiy jihatlarini o‘rganishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlar asosida Shayboniylar davrining ma‘naviy-madaniy merosi, ilmiy muhitining



shakllanishi hamda madaniy taraqqiyot jarayonlarini chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

**Asosiy qism.** XVI asr boshlarida Movarounnahr hududida Shayboniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi bilan mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Bu davr nafaqat siyosiy jarayonlar, balki ilm-fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohalarida ham o'ziga xos rivojlanish bosqichi sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Shayboniylar hukmronligi davrida Movarounnahr hududida shakllangan ilmiy-madaniy an'analar Temuriylar davrida boshlangan ma'rifiy jarayonlarning davomchisi sifatida namoyon bo'ldi. Shayboniylar davrida ta'lim tizimi asosan madrasalar va maktablar orqali amalga oshirilgan. Madrasalar o'sha davrning asosiy ilm-ma'rifat markazlari bo'lib, bu yerda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Madrasalarda fiqh, tafsir, hadis, arab tili grammatikasi, mantiq, falsafa, matematika, astronomiya kabi fanlar o'qitilishi keng yo'lga qo'yilgan. Bu esa o'sha davrda ilmiy tafakkur rivojlanishiga muhim zamin yaratgan. Shayboniy hukmdorlari ilm-fan rivojiga ma'lum darajada e'tibor qaratganlar. Ayniqsa, Muhammad Shayboniyxon ilm-fan ahliga hurmat bilan qaragan hukmdorlardan biri sifatida tarixda tilga olinadi. U o'z saroyida ko'plab olimlar va adiblarni to'plagan hamda ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlagan. Shu sababli Shayboniylar davrida ilmiy muhit

shakllanib, turli sohalarida faoliyat yuritgan olimlar yetishib chiqdi [2.214-216].

Bu davrda Buxoro, Samarqand va Hirot shaharlari ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida alohida ahamiyat kasb etgan. Buxoro shahri ayniqsa yirik ilmiy markazga aylangan bo'lib, bu yerda ko'plab madrasalar faoliyat yuritgan. Buxorodagi Mir Arab madrasasi, Abdullaxon madrasasi kabi ilm maskanlari o'sha davrda mashhur bo'lgan ta'lim muassasalaridan hisoblanadi. Ushbu madrasalarda nafaqat Movarounnahr, balki boshqa hududlardan ham talabalar kelib tahsil olishgan. Shayboniylar davrida ilmiy muhitning rivojlanishida olimlar va tarixnavislarning faoliyati muhim rol o'ynadi. Bu davrda tarixnavislik an'analari rivojlanib, ko'plab tarixiy asarlar yaratildi. Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, Mulla Shodi, Fazlulloh ibn Ruzbixon Isfahoniy kabi tarixchilar o'z asarlarida Shayboniylar davrining siyosiy va madaniy hayotini yoritib berdilar. Ularning asarlari bugungi kunda ham Shayboniylar davri tarixini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda [3.196-198]. Shuningdek, bu davrda adabiyot va badiiy ijod ham rivojlandi. O'zbek va fors-tojik tillarida ko'plab badiiy asarlar yaratildi. Shoir va adiblar saroy muhitida faoliyat yuritib, turli janrlarda asarlar yozdilar. Shayboniylar hukmronligi davrida adabiyotda tarixiy voqealar, davlat boshqaruvi, axloqiy masalalar hamda insoniy qadriyatlar keng



yoritilgan. Madrasalarda ta'lim jarayonining tashkil etilishi ham o'ziga xos tizimga ega bo'lgan. Talabalar dastlab boshlang'ich bilimlarni maktablarda egallab, keyinchalik madrasalarda chuqur ilmiy ta'lim olishgan. Ta'lim jarayonida asosan mashhur olimlarning asarlari o'quv qo'llanma sifatida foydalanilgan. Bu esa ilmiy an'analarning davomiyligini ta'minlagan. Shayboniylar davrida kitobat va kutubxona madaniyati ham rivojlandi. Saroy kutubxonalari tashkil etilib, ularda turli ilmiy va badiiy asarlar to'plangan. Bu esa ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan olimlar uchun muhim ilmiy muhit yaratgan. Ayrim hukmdorlar o'z saroylarida kitob to'plashga alohida e'tibor qaratganlar.

Shunday qilib, Shayboniylar davrida ta'lim tizimi va ilm-fan rivoji Movarounnahr hududining madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Madrasalar faoliyati, olimlar ijodi hamda tarixnavislik an'alarining davom etishi ushbu davrda ilmiy muhitning shakllanishiga xizmat qildi. Bu jarayonlar keyingi davrlarda ham Markaziy Osiyoning ma'naviy-madaniy rivojiga muhim ta'sir ko'rsatdi. [4.156-160]

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Shayboniylar davri Movarounnahr tarixida siyosiy barqarorlik bilan bir qatorda ilm-fan, ta'lim, madaniyat va san'at rivojiga ham muhim ta'sir ko'rsatgan davrlardan biri hisoblanadi. Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida mamlakatda davlat boshqaruvi

tizimi mustahkamlanib, ijtimoiy-madaniy hayotda yangi jarayonlar yuzaga keldi. Ayniqsa, ilm-ma'rifatga e'tibor qaratilishi natijasida madrasa va boshqa ta'lim maskanlari faoliyati rivojlanib, diniy hamda dunyoviy fanlarni o'rganish jarayoni davom etdi.

Mazkur davrda Movarounnahrning yirik shaharlari – Buxoro, Samarqand va boshqa ilmiy markazlar madaniy va ma'rifiy hayotning muhim o'choqlariga aylandi. Bu hududlarda ilm-fan bilan shug'ullanuvchi olimlar, tarixchilar, shoirlar va san'atkorlar faoliyat yuritib, ilmiy va adabiy meros yaratdilar. Tarixnavislik, adabiyot, xattotlik, miniatyura san'ati hamda me'morchilik rivojlanib, Markaziy Osiyo madaniy taraqqiyotining muhim bosqichlaridan birini tashkil etdi. Shuningdek, Shayboniylar davrida Temuriylar davrida shakllangan ilmiy va madaniy an'alar davom ettirilib, ularning rivojlanishiga yangi mazmun berildi. Bu jarayon ilmiy tafakkur, adabiy muhit va san'at sohalarining yanada boyishiga xizmat qildi. Natijada, mazkur davr Movarounnahrning ma'naviy va madaniy hayotida muhim tarixiy iz qoldirdi.

Umuman olganda, Shayboniylar davrida ta'lim tizimining rivojlanishi, ilm-fan va madaniyatning taraqqiy etishi hamda san'atning turli yo'nalishlari yuksalishi Markaziy Osiyo tarixida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda yaratilgan ilmiy va madaniy meros bugungi kunda ham tarixiy taraqqiyot jarayonini o'rganishda muhim



manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois Shayboniylar davrining ilmiy va madaniy hayotini chuqur o'rganish O'zbekiston

tarixining muhim sahifalarini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi (XVI–XIX asrning birinchi yarmi). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
2. Ilhomov Z.A. O'zbekiston xalqlari madaniyati tarixi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Ahmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Hasanov H. O'rta Osiyo tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1996.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998.
7. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi (XVI–XVIII asrlar). – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
8. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqishi va etnik tarixi. – Toshkent: Universitet, 2007.
9. Azamat Ziyo. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – Toshkent: Sharq, 2001.
10. Sagdullayev A., Mavlonov O. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2018.